


Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari

2019 yil
yanvar-iyun

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **2296,2 mlrd. so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati **117,6 foizni** tashkil etdi. Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **284,4 mlrd. so'mni**, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1170,8 mlrd. so'mni** hamda norasmiy sektor bo'yicha **841,0 mlrd. so'mni** tashkil qildi.


Qurilish ishlari, foizda



Hududlar kesimida qurilish ishlari, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'ati, foizda



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2296,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 117,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 284,4 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1170,8 mlrd. so'mni hamda norasmiy sektor bo'yicha 841,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.


Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 95,7 % ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 129,9 % ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,9 foizga kamaygan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 4,7 foizga oshgan, norasmiy sektor ulushi 1,8 foizga kamaygan.

Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti

2019 yil yanvar-iyun

(jamiga nisbatan foizda)



2018 yil yanvar-iyun*(jamiga nisbatan foizda)*

Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 66,0 foizi yoki 1516,0 mlrd. so'm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kentgaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o'tgan yilning mos davrida 62,7 foiz yoki 1162,4 mlrd. so'm), 34,0 foizi yoki 780,2 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davrida 37,3 foizi yoki 691,6 mlrd. so'm) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'yektlarini (maktablar, kollejlari, sport hamda sog'liqni saqlash ob'yektlari va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo'ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining hajmi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va ishootlarni qurilishiga 1656,3 mlrd. so'm, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 72,1 foizni, fuqarolik ob'yektlarini qurilishiga 336,3 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 14,6 foizni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 303,6 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 13,3 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari	mlrd. so'mda
Bino va ishootlarni qurilishi	1656,3
Fuqarolik ob'yektlarini qurilishi	336,3
Ixtisoslashtirilgan qurilish	303,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 foiz punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 foiz punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 foiz punktga kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmiga nisbatan ulushi, foizda



2019 yilning yanvar-iyun oylarida

mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalarini tomonidan 2155,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan, oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati 115,9 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 93,9 foizni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 foiz punktga kamaygan.

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 141,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan, oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati 151,5 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 6,1 foizni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 foiz punktga koʻpaygan.


	2019 yil yanvar-iyun, mlrd, soʻm	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati, foizda	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda
Jami mulkchilik shakli bo'yicha	2296,2	117,6	100,0
Davlat	141,2	151,5	6,1
Nodavlat	2155,0	115,9	93,9

2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

	2019 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun	<i>mlrd, so'm</i> O'sish sur'ati, % da
Jami	2296,2	1854,0	117,6
Buxoro sh	513,5	368,5	132,3
Kogon sh	54,7	54,9	94,9
Olot	188,4	154,4	115,8
Buxoro	200,8	144,1	132,4
Vobkent	71,8	59,6	114,3
G'ijduvon	242,6	148,7	154,7
Kogon	209,1	177,8	111,7
Qorako'l	97,9	81,0	114,6
Qorovulbozor	131,2	174,6	71,6
Peshko'	124,2	103,7	113,6
Romitan	177,2	147,1	114,5
Jondor	117,8	107,5	104,1
Shofirkon	167,0	132,0	120,2

Viloyatda qurilish ishlari hajmida eng yuqori o'rinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 513,5 mlrd. so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,3 foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni G'ijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 242,6 mlrd. so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 154,7 foizni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qurilish ishlarining ulushi, foizda



Qurilish ishlari umumiy hajmida 22,4 foiz ulush bilan Buxoro shahri yetakchilikni egalladi. Keyingi pog'onani 10,6 foiz ulush bilan G'ijduvon tumani egalladi. Uchinchi o'rinni 9,1 foiz ulush bilan Kogon tumani egalladi.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari

	2019 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun	<i>ming so'mda</i> O'sish sur'ati, % da
Jami	1 208,1	991,0	115,8
Buxoro sh	1 843,8	1 333,2	131,3
Kogon sh	899,7	910,4	93,8
Olot	1 926,4	1 606,7	113,9
Buxoro	1 226,6	897,3	129,8
Vobkent	522,2	441,2	112,4
G'ijduvon	808,9	503,9	152,5
Kogon	2 729,8	2 377,0	109,1
Qorako'l	605,1	509,8	112,7
Qorovulbozor	7 248,6	9 700,0	71,0
Peshko'	1 029,9	876,6	111,6
Romitan	1 273,9	1 076,9	112,3
Jondor	686,5	638,7	102,1
Shofirkon	955,9	766,6	118,4

Aholi jon boshiga qurilish ishlarida eng yuqori ko'rsatgichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda aholi jon boshiga 7248,6 ming so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 71,0 foizni tashkil etdi. Keyingi o'rinni Olot tumani egalladi. Ushbu hududda aholi jon boshiga 1926,4 ming so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 113,9 foizni tashkil etdi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

T. Adizov

Aloqa telefoni:

Tel: 223-81-99, 0(371)230-83-10